

SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI

Rasulova Hilola Komil qizi

Roman-german tillari fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish (nemis tili)

Annotatsiya:

Ushbu ishda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti qanday tashkilot? Maqsad va yo'nalishi nima? Qachon va nima sababdan tuzilgan? Kabi savollarga siyosatshunos ekspertlar tomonidan berilgan fikrlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xalqaro tashkilot, Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo, hamkorlik, Samarqand .

KIRISH

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti haqidagi ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak. Asosan 1996-yildan boshlanadi. 1996-yil Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari yig'ilish o'tkazadi va Shanxay 5 ligi tuziladi. 2001-yil O'zbekiston qo'shilganidan so'ng Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga asos solinadi. Ammo bu tashkilotning tarixi ancha yillar oldinga borib taqaladi.

1917-yil Chor Rossiyasi inqilob orqali qulatiladi. Qulagan hududlarda SSSR tashkil qilinadi. SSSR ni g'oyaviy mafkurasi kommunizm edi. 1949-yil SSSR ni qo'shnisi bo'lgan Xitoyda davlat boshqaruvi kommunistlar qo'liga o'tadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo ikki qutbga bo'lingan edi Amerika va SSSR. Bu kuchli davlatlarda kelishmovchiliklarning asosiy sababi, davlatlar g'oyaviy markazi qayer bo'lishi edi?

Bu savol 1991-yilgacha davom etdi. Ya'ni 1991-yil SSSR parchalanadi hamda Markaziy Osiyo davlatlari o'z mustqabilliklarini e'lon qila boshlashdi. Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston bu davrlarda sekin astalik bilan oyoqqa tura boshladi. Bu yerlar esa Xitoy bilan chegaradosh edi. Xitoy ham aynan o'sha vaqtlarda iqtisodiy rivojlanish holatida edi. Bunda unga xomashyo bozori Markaziy Osiyo kerak edi.

Bunda Xitoy va Rossiya gaplashib olishdi, ularning kelishuvi shundan iborat ediku, agar biz Markaziy Osiyoni egallab olmasak Amerika kelib oladi. Bunda biz Markaziy Osiyoni qo'ldan boy berishimiz mumkin. Shu sababli Markaziy Osiyoni biz egallaymiz deb kelishuvlar olib borishdi. Va 1996-yilda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston birlashdi yig'ilish o'tkazdi va Shanxay beshligini tashkil qildi. Bu davlatlarni birlashtirgan sabab esa terror muammosi edi. Rossiyaning Checheniston muammosi, Xitoyda uyg'urlar muammosi bor edi. Bu muammolar ularni bir nuqtaga jamladi. Va ularni maqsadi hududiy yaxlitlik va chegara xavfsizligi bo'ldi. Ya'ni davlatlar hududidagi yaxlitlikni ta'minlash.

2001- yilda ularni safiga O'zbekiston qo'shildi. Va Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga asos solindi.

O'zbekistonning bu tashkilotga qo'shilish sababi nima edi?

1-Sabab bu 1999-yilda 16-fevral voqealari bo'ldi. Ya'ni shu yilda sodir bo'layotgan terrorchilik.

2-Sabab Afg'onistondagi vaziyat. Amerikadagi 11-sentabrda egizak binolar qulatiladi. Bu teraktda Amerika Afg'onistondagi Al-qoidani ayblaydi. Amerika Afg'onistondan Al-qoidani topshirishni so'raydi. Afg'oniston bu qoidani bajarmaydi. Oxir oqibat Amerika Afg'onistonga hujum qilishga qaror qiladi. Lekin Afg'onistonga hujum uchun oradagi masofa uzoqlik qilganligi sababli 2001-yil Qashqadaryo Xonobod va Qirg'iziston Manasda Amerikaning harbiy bazalari tashkil qilinadi. Bu bazalardan foydalangan holda Afg'onistonga hujum qiladi. 2005-yilda esa Amerika Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga qo'shilish uchun ariza yuboradi. Ammo bu ariza rad etiladi. Sababi dunyo deyarli Amerika tomonidan boshqarilib turgan bo'lsa, dollar butun dunyoda amalda bo'lsayu yana Shanxay Tashkilotiga ham qo'shilasanmi degan maqsadda ariza rad etiladi.

2005-yil 5-iyul Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Ostonadagi yig'ilishi o'tkaziladi. Bu yig'ilishda Xitoy O'zbekistonga aytadiki, Markaziy Osiyoda Amerikaning harbiy bazalari bo'lishi kerakmas deydi. 29-yil kuni O'zbekiston tashqi ishlari vazirligi Amerikaga murojaat bilan aytadiki, 6 oy ichida harbiy bazani olib chiqib ketishingizni so'raymiz degan murojaat bilan chiqadi.

Aynan shu yillarda O'zbekiston va Amerika o'rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushgan edi. Shu yili Eron, Hindiston, Pokiston Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga kuzatuvchi sifatda kiritildi.

Endi navbat 2022-yil Samarqandda bo'lgan Shanxay Hamkorlik tashkilotining yig'ilishi haqida gapiradigan bo'lsak. Bu yig'ilishda Rossiyaning Ukrainaga boshlagan urushida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti a'zolari qanday yo'l tutadi? Xitoyning Tayvan bilan to'qnashuvi yuz beradimi yoki yo'qmi agar urush bo'ladigan bo'lsa Xitoy AQSH bilan to'qnashadimi degan muhim savollar tufayli ham dunyoning ko'plab davlatlari bu yig'ilishni kuzatib turdi. Chunki katta davlatlar o'rtasidagi bu ziddiyatlar boshqa davlatlarga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shanxay Hamkorlik Tashkilotining ushbu yig'ilishidan bir necha kun avval esa Armaniston va Ozarbayjon o'rtasida to'qnashuv yuzaga keladi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti a'zolari Rossiyaning Ukrainaga bo'lgan munosabatini qo'llab quvvatlamadi aksincha qarshilik bildirdi. Masalan Hindiston, Rossiya tufayli gazlar qimmatlashib ketgani dunyo aholisi havotirga tushayotgani va urushni tezroq tugatishni aytadi. Rossiya tashkilot a'zolariga tez orada urushni to'xtatish haqida va'da berdi. Ammo biroz mudatdan so'ng Rossiyada Ukrainaga qarshi harbiy safarbarlik e'lon qilindi. Natijada Rossiyaning ko'plab viloyatlarida norozichilik boshlandi va haligacha davom etmoqda. Bundan tashqari yig'ilishda Pokistondagi suv toshqini masalasi ko'tarildi va Pokiston tashkilot a'zolaridan xalqi uchun yordam so'radi. Yana bir narsani eslatib o'tishimiz lozimki ushbu tashkilot maqsadi aslo harbiy kuchga aylanmasligi kerak agar harbiy tashkilotga aylanadigan bo'lsa O'zbekiston a'zolikdan chiqib ketadi. O'zbekistonning bu yig'ilishdagi tashkilot a'zolariga bo'lgan murojaati shundan iborat bo'ldiki, Afg'oniston uchun

insonparvarlik yordamini tuzish, Afg'onistonda oddiy xalq qiynalmoqda bizning vazifamiz birinchi navbatda xalq tinchligini o'ylash deydi Sh.Mirziyoyev. Ushbu yig'ilishda eng faol ishlagan matbuot Hindiston matbuoti bo'ldi. Yig'ilish davomida Hindiston matbuoti Afg'oniston muammosi, Rossiya Ukraina urushi hamda Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlarni ochiqdan ochiq muhokama markaziga tashladi.

XULOSA

Ushbu tashkilotlar Yevropa Ittifoqi, yoki NATO ga o'xshaydimi degan savollar vujudga kelishi mumkin. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti aynan Yevropa Ittifoqiga o'xshamasligi uchun tuzilgan. Yevropa Ittifoqi a'zolari bir mintaqaga mansub, o'zining yagona pul birligiga ega bo'lgan tashkilot. Va bu tashkilot a'zolarini birlashtirib turadigan g'oya bu iqtisod va siyosat. Shanxay Hamkorlik tashkilotining maqsadi esa chegara xavfsizligi va yaxlitligidir. Yevropa ittifoqiga aylan oladigan tashkilot bu bizning Turkiy davlatlar tashkiloti bo'lishi mumkin. Turkiy davlatlar tashkiloti Yevropa Ittifoqiga o'xshab a'zolarining tili, dini mintaqasi bir nuqtada joylashgan tashkilotdir. Shanxay Hamkorlik Tashkilotini NATO ga o'xshata olmaymiz. Chunki bu tashkilot hech qachon harbiy blokka aylanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kamolov T. M. Shanxay hamkorlik tashkiloti Yevroosiyo mintaqasidagi beqarorlik sharoitida kollektiv va strategik sheriklikning barqaror tizimi sifatida.
2. "Tojikiston va zamonaviy dunyo" jurnali – 54-60-bet Kokoshina Z .
3. International Affairs jurnali, 2018 yil sentyabr, 192–201-betlar
4. Mamadazimov A. ShHTning rivojlanish istiqbollari va Ipak yo'li merosi. TNU xabarnomasi. 2014. No 4 (47), - 192–195-betlar
5. Shanxay hamkorlik tashkiloti www.sectesco.org
6. Shanxay hamkorlik tashkiloti universiteti www.uni-sco.ru
7. Shanxay hamkorlik tashkilotining mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (SHHT MATT) www.ecrats.org